



A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE LAWS OF SOCIAL DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Abdullatif Abidjanovich Abdumalikkov

Fergana State University

Professor, Department of Philosophy

Doctor of Philosophy (PhD)

Science ID: MFR-0326-0026

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: society, development, change, phenomenon, progress, law of laws, spirit of laws.

Received: 09.09.26

Accepted: 10.09.26

Published: 11.09.26

Abstract: This article provides a comprehensive socio-philosophical analysis of the fundamental laws and patterns of social development. It examines the objective and subjective factors influencing the processes of social formation, transformation, and development. Particular attention is paid to the historical characteristics, internal contradictions, and dialectical nature of social development. The article substantiates the continuous and stage-by-stage character of social development and emphasizes the close relationship between the transformation of social relations and economic, political, spiritual, and cultural processes. It also analyzes the role of the human factor, social needs, interests, and values in the development of society. The influence of innovation, digitalization, and globalization on social life under contemporary conditions of social transformation is highlighted. The study reveals the interrelationship between tradition and innovation, continuity and renewal in the process of social development. Based on the analysis, it is concluded that the objective laws of social development manifest themselves through their interaction with conscious human activity and social institutions.

YANGI O'ZBEKISTON IJTIMOIIY TARAQQIYOTI QONUNLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI**Abdullatif Abidjanovich Abdumalikkov***Farg'ona davlat universiteti**Falsafa kafedrasi professori,**falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Ilmiy identifikatsiya raqami: MFR-0326-0026**Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamiyat, rivojlanish, o'zgarish, hodisa, taraqqiyot, qonunlar qonuni, qonunlar ruhi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan kompleks tahlil qilingan. Jamiyatning shakllanishi, o'zgarishi va rivojlanish jarayonlariga ta'sir etuvchi obyektiv hamda subyektiv omillar o'rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy taraqqiyotning tarixiy xususiyatlari, ichki ziddiyatlari va dialektik mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada jamiyat rivojining uzluksiz va bosqichma-bosqich xarakterga ega ekanligi, ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi esa iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi asoslangan. Inson omili, ijtimoiy ehtiyojlar, manfaatlar va qadriyatlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ham tahlil etilgan. Zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida innovatsiyalar, raqamlashtirish va globallashuv jarayonlarining jamiyat hayotiga ta'siri yoritilgan. Jamiyat taraqqiyotida an'ana va innovatsiya o'rtasidagi munosabat, vorisiylik va yangilanish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Tahlillar asosida ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlari insonning ongli faoliyati va ijtimoiy institutlar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishi haqida xulosa qilingan.

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ЗАКОНОМЕРНОСТЕЙ
ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА****Абдуллатиф Абиджанович Абдумаликков***Ферганский государственный университет**Профессор кафедры философии**Доктор философии (PhD)**Научный идентификационный номер: MFR-0326-0026**Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: общество, развитие, изменение, явление, прогресс, закон законов, дух законов.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируются основные закономерности развития общества с социально-философской точки зрения. Исследуются объективные и субъективные факторы, влияющие на процессы формирования, изменения и развития общества. Особое внимание уделяется историческим особенностям общественного развития, его внутренним противоречиям и диалектической сущности. Обосновывается положение о непрерывном и поэтапном характере развития общества, а также о тесной взаимосвязи трансформации общественных отношений с экономическими, политическими, духовными и культурными процессами. Анализируется роль человеческого фактора, социальных потребностей, интересов и ценностей в развитии общества. Освещается влияние инноваций, цифровизации и процессов глобализации на общественную жизнь в условиях современных социальных изменений. Раскрывается взаимосвязь традиций и инноваций, преемственности и обновления в процессе общественного развития. На основе проведенного анализа делается вывод о том, что объективные закономерности общественного развития проявляются во взаимодействии с сознательной деятельностью человека и социальными институтами.

Kirish. Jamiyat g'oyat murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, muttasil ravishda o'zgarish va rivojlanish xususiyatiga ega. Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini o'zaro ta'minlash asosiga qurilgan bu ijtimoiy tizim obyektiv qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi.

Shu o'rinda, muayyan tizimlarni tartibga soluvchi va ularning taraqqiyot tendensiyalarini ifodalovchi qonun haqida to'xtalish joizdir. Qonun — muayyan shart-sharoitda voqealar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum qat'iy natijani taqozo etadigan, obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlaridir. Qonun muayyan bir natijani tug'dirib, voqealar rivojlanishining xususiyatlari va yo'nalishini belgilab berar ekan, bu narsa ilmiy va amaliy faoliyatda obyektiv qonunlar asosida harakat

qiladigan zaruriy, umumiy va barqaror munosabatlarni ko'rsatibgina qolmay, balki kelajakda ular rivojining yo'nalishlarini ham hisobga olishni talab etadi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda jamiyat taraqqiyoti qonunlari, ijtimoiy-falsafiy rivojlanish masalalari va dialektik qonuniyatlarga bag'ishlangan falsafiy hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida klassik va zamonaviy falsafa namoyandalarining jamiyat, taraqqiyot, ijtimoiy munosabatlar va qonuniyatlar haqidagi qarashlari o'rganildi. Xususan, Gegel va Karl Marksning dialektikaga oid nazariy qarashlari, shuningdek, Aflo-tunning jamiyat va qonunlar haqidagi falsafiy mulohazalari tahlil uchun nazariy manba sifatida olindi.

Shuningdek, J. To'lenovning "Hayot falsafasi", I. Ergashevning "Taraqqiyot falsafasi", F. Nizomning "Yangilanish an'anasi", Aflotunning "Qonunlar" hamda S. Yo'ldoshev, M. Usmonov va boshqalarning G'arbiy Yevropa falsafasiga oid ilmiy asarlaridan foydalanildi. Mazkur manbalardagi jamiyat qonunlarining obyektivligi, amal qilish doirasi, tarixiyligi, umumiy, xususiy va yakka qonunlarga bo'linishi hamda ularning o'zaro aloqadorligiga oid nazariy qarashlar tadqiqotning asosiy materiallarini tashkil etdi.

Jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlari, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar hamda zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarga oid ilmiy-nazariy materiallardan foydalanildi. Ushbu manbalar jamiyat qonunlarining mazmun-mohiyatini ochib berish, ularning namoyon bo'lish shakllarini aniqlash va ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi o'rnini baholash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Muhokama va natijalar. Qonunlar amal qilish sohasiga qarab tabiat va jamiyat (ijtimoiy) qonunlariga bo'linadi. Bu qonunlarning quyidagi farqlari mavjud bo'lib, ular:

- tabiat qonunlari tabiatdagi stixiyali kuchlarning o'zaro ta'siri shaklida namoyon bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari esa ongga ega bo'lgan kishilarning faoliyati orqali namoyon bo'ladi;
- uzoq amal qiluvchi tabiat qonunlaridan farq qiluvchi jamiyat qonunlari qisqaroq vaqt ichida amal qilish xususiyatiga ega [1];
- tabiat qonunlaridan ko'ra jamiyat qonunlari yuqori tezlikda rivojlanadi;
- tabiat qonunlari yer yuzida insonlar bo'lmagan vaqtlarda ham mavjud bo'lgan, jamiyat qonunlari esa inson faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan.

Yuqoridagi farqlardan kelib chiqib, jamiyat qonunlariga shunday ta'rif berishimiz mumkin: jamiyat qonunlari — jamiyatning muayyan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitida ijtimoiy jarayonlar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqozo etadigan nisbiy barqaror munosabatlardir.

Jamiyat qonunlari ham tabiat qonunlari kabi obyektivdir. Bu qonunlar kishilarning irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, ma'lum sharoitda insonlar bu qonunlarni bilishlari va ulardan foydalanishlari mumkin, lekin bu qonunlarni ular bekor qilmaydilar yoki yo'q qila olmaydilar.

Bu qonunlarning amal qilish muddati va jarayonlar qamrovi muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarni taqozo etadi. Uning o'zgarishi yoki faoliyatini to'xtatib, boshqa qonunlarga o'z o'rnini bo'shatib berishi inson xohish-istaklari va irodasiga bog'liq bo'lmay, balki shu qonunlar faolligini ta'minlab turgan muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zgarishi yoki yo'qolishi bilan bog'liqdir [2].

Jamiyat qonunlari alohida ihtotalangan ijtimoiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki dialektika qonunlari asosida o'zaro ta'sirda, uyg'unlikda amal qiladi. Jamiyat qonunlari ham dialektika qonunlariga ko'ra tadrijiy o'zgarib borish, o'z kuchini yo'qotish va yangisiga o'z o'rnini bo'shatib berish, intensiv rivojlanib borish, ekstensiv kengayib borish va yangilarini keltirib chiqarish, o'zaro aloqadorlikda faoliyat yuritish xususiyatlariga ega.

Ularning namoyon bo'lishi ma'lum vaqt va makonda kechadi. Ammo ularni bilish va anglab olish insonlardan juda katta bilim va tajribani talab qiladi. Inson o'zi yashayotgan jamiyatning qonuniyatlarini doimo bilishga intiladi va ijtimoiy jarayonlarning kechishi va o'zgarishini aks ettiruvchi, real voqelikning umumiy, abstraksiyalashgan subyektiv timsolini — qonunlarni “kashf qiladi”. Bu kashfiyot qonunning yaratilishi emas, balki uning qay darajada subyektiv to'g'ri in'ikos ettirilishidir.

Jamiyatning progressiv taraqqiyotini aks ettiruvchi shunday qonuniyatlar borki, har bir jamiyat o'z tarixiy taraqqiyotini bevosita shu qonunlar ta'sirida bosib o'tadi [3]. Bu qonunlar obyektiv xususiyatga ega bo'lib, uni to'g'ri anglash, amaliy faoliyatni shu qonunlarga muvofiqlashtirish taraqqiyotning garovi hisoblanadi.

Inson hayot kechirar ekan, o'z-o'zidan ma'lum bir obyektiv qonunlarning kuchli ta'siri ostida bo'ladi. Biz bunda insonni o'rab olgan tabiat va jamiyatdagi turli hodisalar va jarayonlarning umumiy yo'nalishini belgilab beruvchi tabiat va ijtimoiy qonunlarga duch kelamiz. Insonning biologik mavjudligi tabiiy qonunlar ta'sirida bo'lsa, shaxs sifatida takomillashuvi esa ijtimoiy qonunlar ta'sirida bo'ladi. Tabiiy qonunlar ham, ijtimoiy qonunlar ham amal qilish muddati, hodisa va jarayonlarni qamrab olish darajasiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi.

- Butun insoniyat tarixi davrida amal qiluvchi qonunlar. Ular hech qachon o'z kuchini yo'qotmaslik sifatiga ko'ra tabiat qonunlariga yaqin turadi. Bu qonun mavjudligi jamiyat mavjudligi bilan bog'liq, jamiyat yo'qolsa, bu qonunlar ham yo'qoladi.

- Ayrim ijtimoiy-tarixiy davrlarda namoyon bo'lib, ma'lum shart-sharoitlar yo'qolgach, o'z kuchini yo'qotuvchi qonunlar. Bu qonunlar yuqoridagi qonunlar ta'sirida bo'lib, uning shartlariga javob bera olmagan taqdirda o'z o'rnini bo'shatib beradi. Bu qonunlar sivilizatsion yondashuvga ko'ra sivilizatsiyaning turli bosqichlarida — yovvoyilik, varvarlik, agrar, industrial, informatsion-kompyuter davrlarida, formatsion yondashuvga ko'ra esa — ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm formatsiyalarida alohida shaklda namoyon bo'ladi, to'g'rirog'i, bir sivilizatsiya davrida yoki birgina formatsiyada amal qiladi.

- Alohida davrlarda, nisbatan qisqa muddatlarda amal qilib, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yo'qolishi yoki o'zgarishi bilan o'z ta'sirini yo'qotadigan va boshqa obyektiv qonunlarga o'z o'rnini bo'shatib beradigan qonunlar. Bu qonunlarning amal qilish muddati ma'lum sivilizatsiya bosqichining ayrim davrlarida yoki bir formatsiyaning ma'lum bir jarayonlarini qamrab oladi. Bu qonunlar asosan birgina ijtimoiy-siyosiy tuzum sharoitida amalda bo'ladi. Mavjud ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va shart-sharoitlar yo'qolishi yoki o'zgarishi bilan o'z faoliyatini yo'qotadi.

Biz jamiyat qonunlarining bunday bo'linish tamoyillarini umumiy, xususiy va yakka qonunlar nomi bilan ataymiz. Bu qonunlar ierarxik bo'ysunish tamoyiliga amal qiladi, ya'ni umumiy qonunlarning yo'qolishi (jamiyatning yo'qolishi), xususiy va yakka qonunlarning yo'qolishi esa, o'z navbatida, xususiy qonunlarning o'z kuchini yo'qotishiga olib keladi.

Ijtimoiy qonunlar jarayonlarni qamrab olish darajasiga ko'ra yoki ijtimoiy hayot sohalari va ijtimoiy munosabatlarni qamrab olish darajasiga qarab ham ma'lum turlarga bo'linadi. Bular:

- Butun ijtimoiy hayotni qamrab oluvchi qonunlar. Bu qonunlar jamiyatning ham moddiy, ham ma'naviy hayotini va ijtimoiy munosabatlarning barcha jarayonlarini qamrab oladi. Biz bunda ko'proq dialektika qonunlari ta'sirida bo'lamiz.

- Jamiyat hayotining ma'lum sohasida amal bo'ladigan qonunlar. Bu qonunlar yo moddiy hayotni, yoki ma'naviy hayotni qamrab oladi, ya'ni jamiyat hayotining bir sohasida namoyon bo'ladi.

- Jamiyat hayotining ma'lum xususiy sohasini qamrab oluvchi qonunlar. Bu qonunlar moddiy hayotning birgina sohasida: ijtimoiy yoki iqtisodiy sohada namoyon bo'ladi. Ma'naviy hayotning siyosiy, axloqiy, mafkuraviy, ma'naviy, diniy sohalari va munosabatlarining faqat birgina sohasida namoyon bo'ladi.

Bu qonunlar ham ierarxik bo'ysunish tamoyiliga amal qiladi. Bu qonunlar o'rtasidagi aloqadorlik ham ma'lum qonuniyatga bo'ysunadi. Biz bunda “qonunlar qonuni”, ya'ni dialektika qonunlariga duch kelamiz. Yuqorida amal qilish muddatiga va ijtimoiy jarayonlarni qamrab olish darajasiga ko'ra tasniflangan qonunlarning o'zaro aloqadorligini aniqlash mushkul masala. Bu

jarayonni ham dialektika qonunlari “nazorat” qiladi. Ammo masalaning murakkab tomoni shundaki, qonunlar ichida “hukmdor” bo‘lgan dialektika qonunlariga ko‘ra barcha ijtimoiy hodisalar kabi ularning umumiy, zaruriy va muhim aloqalarini va yo‘nalishini aks ettiruvchi ijtimoiy qonunlar ham o‘zgarib boradi [4]. Ammo biz bu qonunning natijasini o‘ziga nisbatan ham qo‘llashimiz mumkin. Bunda natija qanday bo‘ladi? Dialektika qonunlari ham o‘zgaradimi? Bu kabi savollarga gnoseologik nuqtayi nazardan kelib chiqib shunday javob berishimiz mumkin:

Bu qonun obyektiv xususiyatga ega bo‘lib, uning o‘zgarishi subyektiv talqin qilish va tushunish bilan bog‘liq. Masalan, Gegel dialektika qonunlarini jamiyatga nisbatan qo‘llar ekan, bunda idealistik nuqtayi nazardan yondashadi. Undan dialektikani “meros” qilib olgan Marks esa uning aksi sifatida materialistik pozitsiyada turdi [5]. Vaholanki, dialektika qonunlarini chegaralab, ma‘lum bir omillari doirasidagina tushunish ham bu qonun shartlariga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki, dialektika qonunlari universal xarakterga ega. U jamiyatda ham, tabiatda ham doimo mavjud. U makon va zamonda chegara bilmaydi.

Xulosa. Jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy jarayonlar tasodifiy yoki tartibsiz hodisalar yig‘indisi emas, balki muayyan obyektiv qonuniyatlar asosida shakllanadigan va rivojlanadigan murakkab tizimdir. Jamiyat qonunlari insonlarning xohish-istaklari va individual qarorlaridan tashqarida mavjud bo‘lsa-da, ularning namoyon bo‘lishi bevosita insonlarning ongli faoliyati, ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari va amaliy harakatlari bilan bog‘liq. Shu jihatdan ijtimoiy qonunlarning obyektivligi inson omilini inkor etmaydi, aksincha, inson faoliyati orqali namoyon bo‘ladigan zaruriy va barqaror munosabatlarni ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari jamiyat qonunlarini amal qilish muddati, qamrov doirasi va ijtimoiy hayotning turli sohalariga ta‘siriga ko‘ra tasniflash mumkinligini ko‘rsatdi. Umumiy, xususiy va yakka qonunlarning o‘zaro bog‘liqligi jamiyat taraqqiyotining ko‘p bosqichli va ierarxik xususiyatini ifodalaydi. Bunda ayrim qonunlar uzoq tarixiy davrlar davomida amal qilsa, boshqalari muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan davrdagina o‘z ta‘sirini namoyon etadi.

Shuningdek, jamiyat qonunlarini alohida va bir-biridan mustaqil holda o‘rganish yetarli emasligi aniqlandi. Ular o‘zaro aloqadorlik, qarama-qarshilik, rivojlanish va o‘zgarish jarayonlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli jamiyat qonunlarining mazmuni va amal qilish mexanizmlarini anglashda dialektik yondashuv muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Dialektika ijtimoiy hodisalarni harakat, o‘zgarish, uzluksizlik va yangilanish jarayonida tahlil qilish imkonini beradi. Demak, jamiyat taraqqiyoti qonunlarini to‘g‘ri anglash va ularning amaliy

imkoniyatlaridan samarali foydalanish ijtimoiy rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda belgilashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. To'lenov. Hayot falsafasi. T., "O'zbekiston", 1993. – B. 286.
2. I. Ergashev. Taraqqiyot falsafasi. T., "Akademiya", 2000. – B. 68.
3. F. Nizom. Yangilanish an'anasi. T., "Ma'naviyat", 1998. – B. 124.
4. Aflotun. Qonunlar. T., "Yangi asr avlodi", 2008. – B. 47.
5. S. Yo'ldoshev, M. Usmonov va boshqalar. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. T., "Sharq", 2002. – B. 241.